

ORGANIC DEHQONCHILIK UCHUN MAHSUS ER TUZISHDA EKINLAR QATOR USTINI MUL`CHALASHNING AHAMIYATI

Nietbay Baynazarovich Reimov

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti «Erdan foydalanish va er kadastrasi» kafedrasini mudiri, qishloq xujaligi fanlari doktori, Turon Fanlar Akademiyasining akademigi;

Gozzal Kuwanishbaevna Reymova

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti «Organik dehqonchilik» ixtisosligi bo'yicha 2 bosqich magistrantkasi;

Gulmira Janabaevna Tursinbekova

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti «Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish» ixtisosligi bo'yicha 2 bosqich magistrantkasi;

Nukus sh. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Uzbekiston. nietbay.reimov@bk.ru

Kirish

Qoraqalpog'iston Respublikasidagi suv tanqisligi, shur tuproqli, unumdorligi past, donadorligi juda kam sharoitida ekinlarni mul`chalashning ahamiyati katta. Bu erda klimatning ekstremalligi, bahorning kech kelishi va salqin bulishi, gidrogeologik sharoitning boshqa regionlardan uzgachaligi, ekinlar vegetaciyasi vaqtida doima suv bula bermasligi bizni shartli turda ekinlarni mul`chalashga boshlaydi. Sababi mul`chalash vaqtida ekinlar qisqa muddatli sovuqlardan yaxshi saqlanadi, tuproq bet yuzasida bahorgi kuchli emg'irlar ta`sirda buladigan qatqolaq bulmaydi, tuproq bet yuzasining tez qizishiga sababshi buladi, ekinlar ekilgan qator mul`cha sifatida qullangan gung ta`sirida oziq moddalar bilan tez bayiydi. Mul`chalashning ta`siri yaxshi bulganligi uchun dehqonchiligi rivojlangan mamlakatlar- Germaniya, Izrayl, Finlyandiya, Rossiya va Gollandiyalarda mul`chalash ishlari minnatli turda bajariladi.

Mul`chalash ishlarining ta`sirini aniqlash uchun Qoraqalpog'iston olimlari N.Reimov, G.Reymova va G.Tursinbekovalar tomonidan Respublikaning shur tuproqli va tuproq chirindisi juda kam tuproqlarida oq juxorini ekish vaqtida ekin



qatorlarini yarim chirigan gung erdamida mul`chalash bwyicha bahorda utkarilgan tajribalar natijasini keng jamaoga tavsiya etmoqchimiz.

Tadqiqot ob`ekti va uslublari

Ekinlar ekilgan qatorlardagi tuproqning bet yuzasi yarim chirigan qoramol gungining har xil normalarini mul`cha sifatida sinash bilan bajarildi.

Mul`chalash ishlari racionalizator, texnika fanlari nomzodi S.Aminovning maslamasi –seyalka-kul`tivator erdamida bajarildi. Ushbu maslamaning oddiy seyalkadan farqi – ekin ekilgan qatorlarni 15-16 sm. kenglikta, 3-4sm. qalinliqta mul`chalaydi va mul`cha usti mayda tuproq bilan yupqalab bekitiladi. Ushbu usulni qullangandagi bizning kutgan natijamiz mul`cha erdamida ekilgan ekin urug`lari tezroq qizib, unub boshlaydi. Mul`chaga solingan gung ta`sirida bahorgi dol emg`irlar ta`sirida foyda buladigan qatqolaq bulmaydi, yosh nihollarga zarur namlik yaxshi saqlanadi, tuproqdagi ozuqa moddalar miqdori kupayadi, tuproqning suv utkazuvchangligi va uzida ushlab tura olish uqubi ortadi. Natijada ekinlarning unub chiqishi tezlashib va yaxshi muhit ta`sirida ekinlardan yaxshi unum olinadi.

Tajriba Qoraqalpog`iston Respublikasining Chimboy tumanida «Baxitli» QFY ga qaroshli «Seyfil» massivida bajarildi. Tajribani bajarish uchun dala usuli qullanilib, tajriba uchastkasi joylashgan er utloqi allyuvial tuproqli, sizot suvlari yaqin (1.1-1,6 m.) Tuproq tarkibidagi chirindi miqdori 0,68-1,11 % bulib, tuproq qatlami teranlagan sari ozuqa moddalar miqdori kamayib bora beradi.

Tajribaning sxemasi

| No | Variantlar | Mul`cha miqdori |
|----|-------------------------------------|-----------------|
| 1 | Mul`cha qullanmagan nazorat variant | — |
| 2 | Qoramol gungidan mul`cha | 1.0 t/ga |
| 3 | Qoramol gungidan mul`cha | 1.5 t/ga |
| 4 | Qoramol gungidan mul`cha | 2.0 t/ga |
| 5 | Qoramol gungidan mul`cha | 2.5 t/ga |

Tuprog`i urtacha darajada shurlangan, shurlanish tipi xloridli sul`fatli. Tajriba bitta yarusta joylashgan bulib, variantlar arqada qiblaga chuzilgan. Tajriba quyish oldidan dalaga surimdan sung tirma mala ositga mineral ug`itlarning tegishli normalari berildi. Tajribada oq juxorining «Boy jugara» navining birinchi reprodukciyasi ekildi. Tadqiqot ishini bajarish vaqtida asapon B.A.Dospexovning «Dala tajribasi



metodikasi» va Uzbekiston olimlari tomonidan qayta ishlangan UzPITI metodikasi bwyicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. Usimlikning usib rivojlanishi vaqtidagi baqlash, ulchash va sanoq ishlari UzPITI uslubida va tuproq tadqiqot ishlari tuproqshunoslik va agrokimyo ilmiy tadqiqot instituti uslubida bajarildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Olingan natijalar va ularning tahlili shuni kursatdiki mul`cha qullanmagan birinchi variantta tajriba qaytariqlari buylab 32,0-33,8 c/ga oq juxori don unumi olinib, urtacha unum 33,6 c/ga buldi. Gungdan yasalgan mul`chaning 1 t/ga normasida ok juxoridan 35,5 - 38,2 c/ga ok juxori don unumi olinib, urtacha unum 36,9 c/ga buldi. Olingan kushimcha unumning miqdori birinchi usulga solishtirilganda 3,3 c/ga ga kup buldi.

Mul`chaning 1,5 t/ga normasi bilan bajarilgan usulida tajriba qaytariqlari buylab 36,1-39,72 c/ga oq juxori don unumi olinib, turt qaytariqdan olingan urtacha unum 37,9 c/ga buldi. Olingan kushimcha unumning miqdori birinchi usulga solishtirilganda 4,31c/ga ga kup buldi.

Mul`chaning 2 t/ga normasi bilan bajarilgan usulida tujriba qaytariqlari buylab 45,3 -49,7 c/ga oq juxori don unumi olinib, turt qaytariqdan olingan urtacha unum 47,5c/ga buldi. Olingan kushimcha unumning miqdori birinchi usulga solishtirilganda 13,9, ikkinchi usulga solishtirganda 9,6 c/ga ga kup buldi.

Mul`chaning 2,5 t/ga normasi bilan bajarilgan usulida tujriba qaytariqlari buylab 45,6 -50,2 c/ga ok juxori don unumi olinib, turt qaytariqdan olingan urtacha unum 47,9 c/ga buldi. Olingan kushimcha unumning miqdori birinchi usulga solishtirilganda 14,2, ikkinchi usulga solishtirganda 9,8 va uchinchi usulga solishtirganda 0,2 c/ga ga kup buldi.

Yarim chirigan qoramal gungidan ishlatilgan mul`cha oq juxorining ekish qatori yasalgan hamma usullarda da mul`cha erdamida ekilgan ekin urug`lari tezroq qizib, erta unub boshladi. Mul`chaga solingan gung ta`sirida bahorgi dol emg`irlar ta`sirida foyda buladigan qatqolaq bulmadi, yosh nihollarga zarur namlik yaxshi saqlandi, tuproqdagi ozuqa moddalar miqdori kupaydi, tuproqning suv utkazuvchangligi va uzida ushlab tura olish uqubi ortti. Natijada ekinlarning unub chiqishi tezlashib va yaxshi muhit ta`sirida ekinlardan yaxshi unum olindi.



Xulosalar:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasining unumdorligi va strukturasi past erlarida dehqonchilikni meerida yuritish uchun bahorgi ekish vaqtida oq juxoridan tuliq nihol olish, ulorni bahorgi qisqa muddatli sovuqlardan saqlash, tuproqning agrofizikaviy va agrokimyoviy xossalari yaxshilab, ok juxoridan rejalashtirilgan yuqori va sifatli unumni olishimiz ham da ishlab chiqarish rentabelligini oshirish uchun oq juxori urug'lari ekilgan qatorni yingichka polosa turinda mul'chalash maqsadga muvofiq.

2. Mul'cha ta'sirida haqiqatida da oq juxori nihollarining unub chiqishi yaxshilanib, tuproq tarkibidagi ozuqa moddalar kupaydi, mikroorganizmlar faolligi yaxshilandi, tuproqda qatqaloq bulmadi. tuproq namligi yaxshi saqlanib, tuproq namligini saqlash va issiliq tuplash qobiliyati ortti.

3. Mul'chalashda sinalgan usullar orasida gektariga 2-2,5 t/ga hisobidan qoramal gungi qullanilgan usul iqtisodiy tomondan boshqa usullarga nisbatan yaxshi natija berdi.

5. Oq juxorining «Boy jugara» navini ekish vaqtida mul'chaning foydali ta'sirida tajriba sinoq usullarida nazorat variantga solishtirganda 3,3-14,2 c/ga don unumi kup unum olindi.

6. Mul'chalashda sinalgan usullar orasida gektariga 2 t/ga hisobidan qoramal gungi qullanilgan usul orqali hamma ishlatilgan qarajatlardan tashqari bajarilgan ishlarning sifatiga qarab har gektardan 800 ming 927 sumdan 3,2 million 600 ming sum toza foyda olish mumkin.

Foydalalanilg'an adabiyotlar;

1. Mirziyayev SH.M. Buyuk kelashagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent. «Uzbekiston».NMIU,2017.488 b.

2. Реймов Н.Б., Реймова Г.К. Органик деҳқончиликда ғўза қаторлари устини мульчашнинг тупроқнинг агрофизик хоссаларига таъсири. In an International Conference –Scientific Conference on Multidisciplinary Studies, Published online with E-Conference Series , Hosted online from Moscow Russia. ISSN (E): 2835-5733 SJIF

5.111 Date: 04/05/2023.

<https://econferenceseries.com/index.php/scms/issue/view/37>.

3. Реймов Н.Б., Караев А., Реймов О. Қорақалпоғистонда экинларни мульчашнинг аҳамияти. Агроилм журнали. ISSN 2091-5616. 1[64] сони 2020 йил. 85-86 бетлер.

4. Реймов Н.Б. Намозов Х, Жураев Г. Интенсивно использовать землю. Экологический вестник информацион.- аналитический и научно-практический журнал Госкомприроды Руз. 43-44 стр.

